# “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunning mohiyati va ahamiyati

***(O‘RQ–792-son, 29.09.2022-y.)***

# Joriy yilning 29-sentabrida “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ–792-son Qonun Prezident tomonidan imzolandi

Qonunga ko‘ra, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi elektron tijorat sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

# Quyidagilar elektron tijorat ishtirokchilari hisoblanadi

elektron tijoratda sotuvchi

ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar

elektron tijoratda tovarlarning xaridori, iste’molchisi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar

# Sotuvchi elektron tijoratni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

**Xaridor quyidagi huquqlarga ega:**

- shartnomalar tuzish orqali tovarlarni sotib olish;
- tovarlar, ishlab chiqaruvchi va tovarlarni sotib olishning boshqa shartlari to‘g‘risida to‘liq axborot olish;
- elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan operatsiyalarda ishtirok etish uchun shartlarning tengligini talab qilish;
- o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini talab qilish.

❖ **XARIDOR:**

- ❑ **shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklif qabul qilinganidan keyin shartnoma tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni va ma’lumotlarni taqdim etishi;**
- ❑ **to‘lov tizimlari operatorlariga to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni qonunchilikka muvofiq taqdim etishi shart.**

**Elektron tijorat operatorlari jumlasiga quyidagilar kiradi:**

**telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari**

**elektron savdo maydonchalari operatorlari, to‘lovga oid xizmatlarni yetkazib beruvchilar**

**elektron tijorat subyektlarining elektron hujjatlarini va elektron xabarlarini saqlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar**

# Қишлоқ хўжалиги экинлари уруғчилигини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги Президент қарори (ПҚ–106-сон, 28.01.2022 й.)

**Уруғчиликни ривожлантириш марказига бир қатор қўшимча вазифалар юклатилди**

**Марказ пахта, бошоқли дон, сабзавот, полиз, мойли, дуккакли ва озуқа экинлари уруғликларини ички ва ташқи бозорга “Uzbek seeds” миллий бренди асосида сотишни ташкил этади**

**“Ўзпахтасаноат” АЖнинг 11 та уруғлик чигит тайёрлаш цехлари Марказга берилди**

Elektron tijoratda shartnoma taraflar o‘rtasida shartnomaning shartlarini elektron hujjatlar va (yoki) xabarlarni tasdiqlash yo‘li bilan kelishish orqali elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi




Elektron tijoratdagi hujjatda hujjatni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari (“SMS”, “Face-ID” va boshqalar) ham imzo sifatida tan olinadi.

Shartnoma faqat axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib, haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

# Elektron tijorat sohasida to‘lovlar quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi

naqd pul mablag‘lari bilan – naqd pul mablag‘lari to‘lov vositasi tarzida virtual terminallar orqali qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlarni hamda sotuvchi va sotilgan tovarlar to‘g‘risidagi axborotni o‘zida aks ettiradigan hujjatlarni xaridorga taqdim etish orqali

pul mablag‘larini bank hisobvarag‘idan o‘tkazish orqali – pul mablag‘larini bank hisobvarag‘idan o‘tkazish vositasida, shu jumladan shaxsiy kabinet orqali yoki to‘lov tashkilotining tizimi orqali o‘tkazish vositasida

elektron pullardan foydalangan holda – elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag‘larini o‘tkazish vositasida

# E’tiboringiz uchun rahmat

